

VOKAL SAN‘ATI TARIXI HAMDA UNING MUSIQA SAN‘ATIDAGI AHAMIYATI

Yo‘ldoshev Umidjon Ochilovich
O‘zDSMI, “Vokal” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa san‘atida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan janr vokal san‘atining tarixi, rivojlanishi, ushbu san‘at turiga o‘zlarining hissalarini qo‘shgan namoyondalar, hamda vokal san‘atining amaliy va nazariy tomonlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Vokal, ovoz, san‘at, musiqa, diapazon, qo‘shiq, asar.

O‘zbek musiqa madaniyati nihoyatda serjilo va nihoyatda boydir. San‘atning har bir turi o‘ziga yarasha go‘zallikka, rang-barangikka egadir. O‘zbek musiqa san‘atining o‘ziga xos, muhim ahamiyatga ega vokal san‘ati esa asrlardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olib, rivojlanib kelmoqda. O‘zib kelayotgan kelajak avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sishi va rivoj topishi, badiiy va estetik tarbiya berish hozirgi zamon pedagogikasining asosiy vazifalaridandir.

Vokal san‘ati – musiqani ovoz bilan ijro etish, musiqiy asarning mazmunini qo‘shiq ovozi orqali yetkazish san‘atidir. Shuni ham aytib o‘tish joziki, ushbu san‘at turi eng qadimgi san‘at turlaridan biridir.¹

Vokal musiqa (qo‘shiq, romans, a‘kapella xorlar) – cholg‘u jo‘rligida yoki jo‘rsiz kuylash uchun mo‘ljallangan musiqadir. Vokal musiqasining asosini tashkil etuvchi matn (she‘r) – mazkur janr mukammalligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Vokal ijrochiligining fanga kiritilishining asosiy maqsadi shundan iboratki, vokal san‘ati vositasida bo‘lajak teatr aktyorlarining estetik va badiiy didini

¹ A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent – 2018.

tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda uzluksiz talabchanlik bilan ish olib borish, ularni o'zbek kompozitorlarining oldingi va yangi asarlari, qardosh xalqlar vokal asarlari, shuningdek, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlar bilan tanishtirish, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir. "Vokal" so'zining lug'aviy ma'nosi bizda qadimdan mavjud bo'lgan aytimga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra "vokal" istilohi tarixiy ijtimoiy, ma'daniy-ma'rifiy jarayonlarning ajralmas bir bo'lagi sifatida qadim zamonlardan beri yashab kelyapti. O'zbek xalqi madaniy hayotiga XIX asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san'at janrini ifodalay boshlagan vokal tushunchasi Yevropada uzoq tarixga ega bo'lib, uning genezisi antik davr diniy marosimlari ijro jarayoniga borib bog'lanadi. Antik Yunon madaniyati tarixi shunga guvohlik beradiki, Yunonlarning e'tiqodiy marosimlari toat-ibodatlarini asosan so'z, musiqalar, muayyan ritmlar sistemasini o'zida mujassam etgan. Yaratganga qilgan toat-ibodatlar, duo-iltijolar mana shu tarzda ijro etilsagina ijobat bo'ladi degan aqida bugungi vokal san'atining dastlabki namunalarini yuzaga keltirgan. Qadim Yunonistonda ayni tarzda ijro "diframlar" deb atalgan. Xuddi shunday jarayonga doir fikrlarni biz qadim Shumer, Xitoy, Hind, Misr madaniyatiga doir tadqiqotlarda ham kuzatamiz.

Milodiy birinchi asrdan boshlab Yevropaning madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Italiyada ilk bor masihiylik e'tiqodi, shu asosda masihiylik cherkovlari va diniy marosimlar tizimi paydo bo'ldi. Ushbu tizimda ham, asosan, so'z ritmi uyg'unligida ijro etilgandagina diniy marosim to'laqonli amalga oshadi, degan an'ana davom ettirildi. Diniy marosimlardagi ibodat shakllari masihiylikning maz'habi va muayyan hududiga qarab goh musiqa jo'rligida, gohida esa musiqa jo'rligisiz (a'kapella) ijro etilgan. Eng muhimi, ibodat marosimlari qay tarzda ijro etilishidan qat'iy nazar so'z ritm bilan uyg'unlashib kelganki, bu keyinchalik biz bugun vokal deb nomlayotgan janrga poydevor vazifasini bajargan.

Vokal tarixiga nazariy adabiyotlarning guvohlik berishicha, Yevropa vokalining markazi va tarixiy jihatdan eng qadimiysi Italiya hisoblanadi. Bu dalil vokal san'atining asosi diniy marosimlar ekani haqida yuqoridagi fikrlarni asoslashi bilan bir qatorda, zamonaviy vokal san'atining o'chog'i nima uchun Italiya bo'lganligi tog'risidagi savollarga ham javob beradi.

Shuning uchun ham, vokal tarixining umumiy tasnif etganimizda ro'yxatning boshida Italiya vokal maktabi keladi. Yevropa vokal san'atining shakllanishi va taraqqiyotida qadim Italyan vokal maktabi asoschilari Petrov Tozi, Jiambattista Manchini, Jo'zef Sarlino, L.Yudoviko Sakkoni, Juliyo Kachchini (XVI-XVII asr) xizmatlari katta. Keyinchalik fransuz vokal maktabidan Jan Baptist Berar, Genrix Ferdinand Manshteyn, nemis vokal maktabidan Lilli Leman, rus vokal maktabidan M.I.Glinka, A.E.Varlamovlarning salmoqli faoliyatlarini qayd etish lozim. Shuni alohida qayd qilish joizki, professional vokal tarixida vokal san'ati amaliyotchilari bilan bir qatorda nazariyotchi olimlar ham faoliyat ko'rsatib kelishgan. Lekin bu o'rinda vokal nazariyotchilari bilan amaliyotchi vokalistlar o'rtasiga ulkan devor qo'yib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Chunki vokal san'ati tarixida vokal nazariyasi va amaliyotini uyg'un holatda olib borgan shaxslar ham talaygina. Bunga misol sifatida Manuel Garsia, M.I.Glinka, F.I.Shalyapinlarni keltirish mumkin.

Vokal ijrochiligida o'qituvchi o'quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanishi lozim. Ashula aytishning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq o'z qiyinchiliklari ham yo'q emas. Xonandaning ovozi o'ziga xos "musiqa asbobi" hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganga ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma-ketligini aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilish

kerak. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, ashula aytish uchun o‘quvchiga avvalo tabiiy, musiqiy xotira va aniq ifodalay bilish qobiliyati zarur bo‘ladi.²

Vokal fanining yana bir muhim tomonlari shundaki, ushbu san‘at turida o‘quvchining ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda repertur tanlashdir. Ya‘ni, pedagog o‘quvchining ovoz imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, uning ovozigga ziyon yetkazmagan holda ovoz diapazonini kengaytirish ustida ish olib borishi zarur. O‘quvchining vokal texnika malakalari asosan mashqlarni muttasil kuylash natijasida rivojlanib boradi. Vokal-texnik malakalari ko‘nikmasini hosil qilish va rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalaniladi. Bunday mashqlar nafasni to‘g‘ri olishga, ovoz va nafas texnikasini rivojlantirishga, sof intonatsiyaga erishishga yordam beradi. Har bir o‘quvchiga individual asar tanlangani kabi, mashqlarni ham o‘quvchining musiqiy va eshitish qobiliyati, vokal tayyorgarligi, ovoz diapazonini hisobga olish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yana bir tamoyil haqida eslatishimiz kerakki, zero ushbu tamoyil vokal-pedagogik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyil – nafas olish texnikasidir. Vokal-pedagogik amaliyotida pastki qovurg‘a – diafragmatik, ya‘ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu turida ko‘krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to‘liq nafas olish imkonini beradi. Nafas va ovoz to‘qimalari o‘zaro ta‘siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi – ovoz apparatining barcha qismlari (bo‘g‘iz, nafas a‘zolari va ustki trubka) muvofiqlashgan natijasidir.

Talabalarning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo‘lganligini hisobga olgan holda, dasturning repertuarlar ro‘yxatiga murakkabligi turlicha

² N.Qahharov, Q.Ayubov. Vokal san‘ati asoslari. “Iqtisod-Moliya”, Toshkent 2008.

bo'lgan asarlar kiritiladi. Lekin barcha kurslarda vokaliz berib borish zarur, chunki ijrochining ovozi sayqallanishiga, texnik-ijrochilik mahorati oshishiga yordam beradi. Ro'yxatga kiritilgan asarlarini talabaning ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozitsiya qilib berish tavsiya etiladi. Romans yoki musiqali drama, operalardan ariyalarni ijro etish uslublarini o'rganish, uzluksiz tarzda ma'lum ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga borishini ta'minlash zarur. Romanslar bir ovoz uchun yozilgan, turli mavzu, xarakter va tuzilishdagi vokal kamer asari bo'lishi mumkin. Bu janr jahon va o'zbek kompozitorlari asarlarida yaxshi rivojlangandir. O'zbekiston kompozitorlari omma o'rtasida tarqalgan ashulalar ohangida romanslar yaratib, bu janrni yanada boyitdilar. Ular asosan Navoiy, Furqat, Muqimiy g'azallariga S.Yudakov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratilgan bo'lib amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Vokal mashg'ulotlarida talaba o'rganib olgan har bir qo'shiq uning ma'naviy olamini boyitib, Vatanga bo'lgan mehrini oshiradi. Qo'shiqning matni ijrochiga tushunarli va zavqli bo'lgan taqdiridagina talaba uni tezda yodlab, musiqasini ham o'zlashtirib oladi, nozik tomonlarini yengil ilg'aydi, sehrini sezadi. Shundan so'ng uni sevib ijro qilishga kirishadi va boshqalarni ham zavqlantira oladi.

Barchamizga ma'lumki, musiqa san'ati estetik idrokning bitmas-tuganmas manbaidir. U insonning ichki olamiga chuqur singib kirib boruvchi o'ziga xos maftunkor olamdir. Inson zoti har doim go'zallikka intilib, hayotdan zavq olib, uni sevib yashaydi. Musiqa har bir insonning yuragida yangraydi, jarang sochadi hamda inson ruhiga orom bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent 2018.
2. A.Haydarov. Vokal. Qo‘qon, 2019.
3. A.Yuldasheva. Vokal. Toshkent 2020.
4. N.Qahharov, Q.Ayubov. Vokal san‘ati asoslari. “Iqtisod-Moliya”, Toshkent 2008.